



PEDAGOGIKA KADRLAR TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Muallif: Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi¹

Affiyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14435945>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada pedagogika sohasida kadrlar tayyorlash borasida ilm-fan va ta'limga rivojlantirishga oid dolzarb muammolarni aniqlash, ularni keng jamoatchilik ishtirokida, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlar, konferensiyalar orqali muhokama qilish va ilg'or xorijiy tajribalar asosida ularning yechimi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviylik, islohot, kommunikativlik, kreativlik, axborot texnologiyasi, kasbiy mahorat, qobiliyat, professional kadrlar, xorijiy tajribalar.

Keyingi yillarda oliy ta'llim tizimiga tatbiq etilayotgan islohotlar samarasini bugun yurtimizda ko'plab xorijiy hamda xususiy oliy ta'llim muassasalari faoliyat yuritayotgani va sohada sof raqobat muhiti shakllanayotgani misolida ham ko'rib turibmiz. Quvonarlisi, chet tillarini o'qitish va shu orgali malakali tarjimonlar va turizm sohasi xodimlarini tayyorlaydigan o'quv yurtlari soni ham ancha ko'paydi.

O'qituvchilik kasbi juda mas'uliyatli va ko'p mehnat talab qiladigan faoliyat hisoblanadi. Chunki pedagoglik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirish, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. Ustozlik mas'uliyatini tanlagan inson hamma narsani biladi va hamma narsaga javobgar. O'qituvchilik vazifasi uning har bir o'sib kelayotgan avlod, jamiyat, davlat taqdiri uchun javobgarligi bilan xarakterlanadi. O'qituvchi ta'llim-tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisidir. So'nggi yillarda respublikamizda pedagoglarga bo'lgan e'tibor, ularning obro'risini yanada mustahkamlash borasida ham sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

2024-yil 1-fevralda 901-sonli "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni imzolangan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida pedagogning maqomi tan olinadi. Pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, ularning ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi va huquqlari amalga oshirilishi uchun kafolatlar beriladi. Pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi. Pedagoglarni tayyorlash oliy ta'llim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Pedagoglarni tayyorlash qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, professional ta'llim tashkilotlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Jamiyatimizda pedagoglarning obro', hurmatini ko'tarish bilan birga ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishga ham e'tibor berilmoqda. Xususan, 2020-yil



23-sentabrdagi 637-sonli "Ta'lism to'g'risida"gi Qonunning 53-moddasiga ko'ra "Ta'lism tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish davlat tomonidan kafolatlanadi. Ta'lism tashkilotlarining pedagog xodimlariga qisqartirilgan ish vaqt davomiyligi belgilanadi, haq to'lanadigan har yilgi uzaytirilgan ta'til va boshqa imtiyozlar va kafolatlar taqdim etiladi. Ta'lism tashkilotlarining pedagog va boshqa xodimlariga sanitariya-gigiyenaga oid, epidemiyaga qarshi hamda profilaktika choralari bilan amalga oshiriladigan sog'liqni saqlash kafolatlanadi. Ta'lism tashkilotlari mehnatga haq to'lash uchun mavjud bo'lган mablag'lar doirasida mustaqil ravishda ish haqiga, lavozim maoshlariga tabaqlashtirilgan ustamalar belgilashga va mehnatga haq to'lash hamda uni rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli" ekanliklari belgilab qo'yilgan.

Jamiyatimizda pedagog kadrlarga ijobiy munosabatlarni o'sib borishi bilan bir qatorda ularning kasbiy faoliyatiga bo'lган talab ham ortib bormoqda. Hozirgi kunda zamon har tomonlama mukammal, zamonaviy, chuqr kasbiy bilimlar ba'zasiga ega bo'lган, zamonaviy ta'lism texnologiyalari va metodlarini biladigan va qo'llay oladigan, ta'lism vositalardan o'rinni foydalana oladigan, pedagogik mahorat va pedagogik qobiliyatlarga ega bo'lган, dunyoqarashi keng pedagog kadrlarni talab qilmoqda.

Pedagogika sohasidagi muammolar qatori ham aynan mana shu jihatlar bilan bog'liq hisoblanadi. Misol uchun yosh pedagoglarimizda kasbiy mahoratning yetishmasligi, ta'lism oluvchilarning yosh va individual, psixologik xususiyatlarini yaxshi bilmasligi, peagogik qobiliyat turlarining to'laqonli shakllanmaganligi, nazariy bilimlarining amaliyotda mustahkamlanmaganligi, bundan tashqari pedagoglarda shaxsiy xususiyatlaridan (sabr-toqat, iroda, bardoshlilik, mehribonlik, kechirimlilik va hk.) foydalinish kabi kasb faoliyati bilan bog'liq muhim jihatlardan o'rinni va samarali foydalana olmasliklari kabi kamchiliklar kuzatilmoqda.

Shuning uchun ham ushbu maqolada o'qituvchi uchun eng muhim bo'lган jihat pedagogik mahorat haqida to'xtalishga qaror qildim. Pedagogik mahoratga ega bo'lган o'qituvchi - talabalarda o'qish, o'qitish, tarbiyalash jarayonida diqqatlarini aniq taqsimlash, bilim, ko'nikmalarini, ruhiy holatlari, kayfiyatini boshqara olish va pedagogik texnika qoidalarini o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari pedagog aql - zakovatli, ilmiy salohiyatli, ma'nnaviyatli, madaniyatli, o'z Vatani rivojlanishi hamda kelajagi uchun qayg'urishi, jamiyatda ma'nnaviyatli shaxslar ko'payishi uchun o'z hissasini qo'shishi lozim.

O'qituvchilik kasbi murakkab va mas'uliyatli kasbdir. Murakkabligining yana bir jihatni doimo turli toifadagi, ruhiyatdagi insonlar bilan muloqotda bo'lischidir. O'quvchi bilan doimiy muloqotda bo'lish jarayonida, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu o'qituvchidan pedagogik, psixologik va metodik tayyoragarlikni talab etadi.

Pedagogik mahoratning muhim xususiyatlaridan yana biri pedagogik jarayonni aniq tashkil qila olish, boshqarish, kutilayotgan natijalarini oldindan ko'ra olish va uni ro'yobga chiqarish, shuningdek, pedagogik faoliyat jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lган nizoli vaziyatlarga tayyor turishi va ularni bartaraf eta olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Pedagogik mahorat tug'ma qobiliyat yoki avloddan-avlodga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning zamirida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Bundan kelib chiqqan holda, pedagogik mahorat barcha pedagoglar uchun bir qolipdagi ish usuli

emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bu jarayonda albatta tajribali, ilg'or o'qituvchilarning pedagogik mahorati va tajribalarini o'rganish ham yaxshi natija beradi.

O'qituvchining kasb faoliyatida unga zarur bo'lgan vositalardan eng muhimlari sirasiga pedagogik qobiliyatlar ham kiritiladi. O'qituvchining pedagogik qibiliyatlariga sezgirlik, kommunikativlik, xushmuomalalik, perceptiv qibiliyatlar ya'ni kasbiy yetuklik, empatiya, shaxs irodasiga ta'sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyati, o'zini boshqara olish, kreativlik — ijodiy ish qobiliyati kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ta'limg-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagoglarga zarur omillardan yana biri pedagogik texnikadir. Pedagogik texnika o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilishi (mimika, pontamimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi hamda ulardan o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ishlar jarayonida foydalanishi hisoblanadi. Masalan, pedagog texnika o'qituvchining harakatlari, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi. Bu qobiliyatlaridan o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli otashkil etishi uchun sharoit yaratib beradi.

Har bir pedagog o'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashi ham ta'limg samaradorligini oshirishga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga samarali ta'sir etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limg zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi pedagoglik mahoratlarini chuqur egallagan, qobiliyatlaridan hamda pedagogik texnikadan o'rinni foydalana oladigan, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda innovatsion metodlardan samarali foydalanadigan pedagoglarga talab ortib bormoqda. O'zbekiston ta'limg tizimida pedagogik mahoratli kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu jarayonni yanada samarali qilish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirish mumkin:

- ta'limg jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, raqamli ta'limg vositalardan foydalanish, elektron darsliklar, ta'limg platformalari va onlayn kurslarni takomillashtirish;

- o'qituvchilarning malaka oshirish tizimini takomillashtirish;

- o'qituvchilar uchun Yevropa, Osiyo va boshqa mamlakatlarning ilg'or ta'limg mutaxasislari bilan aloqa o'rnatishlari va hamkorlik qilishlariga ko'maklashish;

- pedagogika yo'nalishidagi iste'dodli yoshlarni izlab topish uchun turli konkurs va tanlovlardan o'tqizish;

- ish foliyatida band bo'lgan o'qituvchilarning kasbiy mahorat oshirish uchun haftalik seminarlarni tashkil etish

- hududlar bo'yicha pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni o'rganib chiqish va hal etish;

- pedagoglar zamonaviy ta'limg vositalardan foydalanib dars o'tishlari uchun virtual labaratoriylar, interaktiv doskalar, zamonaviy ta'limg platformalarini yanada ommalashtirish;

- o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish uchun ularning oylik maoshlarini oshirish hamda pedagoglar uchun turli imtiyozlar joriy etish;

- pedagogika sohasida fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasini yanada rivojlantirish.

Yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali O'zbekistonda mahoratli pedagogik kadrlarni tayyorlash hamda malakasini oshirish jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkin. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini va xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi 2024-yil 1-fevraldag'i 901-sonli.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni 2020-yil 23-sentabrdagi 637-sonli.

Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qaror.

R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova , M.K.Shirinov , S.Hafizov "Umumiy pedagogika" Darslik "Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

A.G.Ibragimov, I.T.Muradov "Xorij tajribalari asosida O'zbekistonda pedagogik kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish masalalari" maqola. Science and innovation.UIF-2022:8.2 ISSN:2181-3337. 1128-1137 bet.

